





SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2017 yilda Samarqand viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar soni 57 tani tashkil qilib, ular tomonidan 34260 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi. Tashrif buyuruvchilarning 23642 nafari chet-el fuqarolari shundan 321 nafari MDH davlatlari fuqarolari va 10618 nafarini

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkil qilgan.



2017 yilda Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilarning MDH, xorijiy va O'zbekiston fuqarolari ulushi, foizda




2017 yilda Samarqand viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan 3297 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, ularning qiymati 36956,2 mln.so'mni tashkil qildi.

2017 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlikda	Qiymati, mln.so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	3297	36956,2
Ulardan bevosita aholiga	3253	36479,1
<i>shu jumladan:</i>		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	631	905,8
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	65	554,3
O'zbekiston hududi bo'yicha MDH fuqarolariga	159	566,5
O'zbekiston hududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariga	2697	38188,1

2017 yilda sotilgan 3253 ta sayyohlik yo'llanmalarining barchasi aholi tomonidan sotib olingan.


2017 yilda Samarqand viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2017 yilda Samarqand viloyati mehmonxonalarning toifasi (yulduzi)

2017 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 93 tani tashkil qildi. Ulardan 5 ta bir yulduzli, 1 ta ikki yulduzli, 12 ta uch yulduzli, 9 ta to'rt yulduzli va qolgan 66 tasi esa, toifaga ega bo'lmagan mehmonxonalaridir.

2017 yil mehmonxonalarning toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati, foizda



■ bir yulduzli ■ ikki yulduzli ■ uch yulduzli ■ to'rt yulduzli ■ toifaga ega emas



2017 yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni 131 tani tashkil qilib shundan 104 tasi mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari bo'lib, 93 ta mehmonxona, 2 ta ponsianat, 9 ta qisqa muddat yashashga mo'ljallangan joylar qolgan 27 tasi sanatoriya kurort, xostel va shunga o'xshash umumiy yotoqxonalaridir.

